KORXONALARDA BILVOSITA SOLIQLARNI QO'LLASHDAGI AMALIY MUAMMOLAR VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Abdilamitova Dildora Xabibulla qizi
O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya: Mazkur tezisda korxonalarda bilvosita soliqlarni (QQS va aksiz solig'i) qo'llash amaliyotida yuzaga kelayotgan tizimli muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari tadqiq etilgan. Tadqiqot doirasida Yevropa Ittifoqi (VIES, Postponed VAT) va MDH davlatlarining (ASK NDS-2) ilg'or soliq ma'murchiligi tajribasi tahlil qilinib, milliy soliq tizimi bilan solishtirilgan.

Kalit so'zlar: Bilvosita soliqlar, qo'shilgan qiymat solig'i (QQS), aksiz solig'i, soliq ma'murchiligi, soliq tizimi, aylanma mablag'lar, kameral soliq tekshiruvi

Korxonalarda bilvosita soliqlarni qo'llash hamda soliq ma'murchiligi biznesning aylanma mablag'lari va moliyaviy barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bugungi kunda soliq tizimini raqamlashtirish kengayayotgan bo'lsa-da, amaliyotda tadbirkorlar va buxgalterlar duch kelayotgan qator muammolar mavjud.

Amaliy muammolar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

1. QQS o'rnini qoplash ya'ni qaytarish tizimidagi murakkabliklar mavjudligi.

Kameral soliq tekshiruvlari va xavflarni tahlil qilish tizimi tufayli eksportyor yoki investitsiya kiritayotgan korxonalar uchun QQS ning manfiy farqini budjetdan qaytarib olishda muddatlar cho'zilishi sababli korxonalarning aylanma mablag'larining muzlab qolishi va aylanmadan vaqtincha chiqib turishiga olib keladi. Bu esa o'z navbatida likvidlilikka ta'sir ko'rsatadi.

2. Korxona o'z majburiyatlarini to'liq bajarsa-da, mahsulotlarni yetkazib beruvchi zanjirdagi ba'zi kontragentlarning mas'uliyatsizligi sababli soliq to'lashmagan bo'lsa, soliq organi tomonidan korxonaning QQSni hisobga olish huquqi bekor qilinishi yoki cheklanishi mumkin.

3. Ma'muriyatchilik va hisobot yukining yuqoriligi. Bunga quyidagilarni misol qilish mumkin:

• Elektron hisob-faktura, tovar-transport yuk xatlari va tovarlar nomenklaturasi tizimlarining tez-tez o'zgarayotganligi yoki xatoliklar berishi.

• Buxgalteriya xodimlari operatsiyalarga ko'p vaqt sarflayotganligi.

4. Aksiz solig'ini hisoblash va markirovkalash muammolari:

Aksiz osti tovarlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar uchun majburiy raqamli markirovka tizimini joriy etishda yuzaga kelayotgan yuqori uskunaviy xarajatlar va logistika zanjiridagi uzilishlar.

Amaldagi muammolarni yechish va soliq tizimini yanada takomillashtirish uchun bilvosita soliqlar mexanizmini soddalashtirish va korxonalar uchun qulay shart-sharoit yaratish maqsadga muvofiqdir. Mamlakatimizda so'nggi yillarda soliq ma'murchiligini takomillashtirish yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlarning maqsadi ham aynan shu hisoblanadi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 04.09.2023 yildagi PQ-292-songa ko'ra quyidagilar belgilandi:

a) qo'shilgan qiymat solig'ining salbiy summasi o'rnini qoplashda (qaytarishda) soliq uzilishi (tax gap) koeffitsiyentini qo'llash amaliyoti taqiqlanadi;

b) qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha maxsus ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomaning amal qilishini to'xtatib turish tartibi bekor qilinadi (bundan amalga oshirilayotgan bitimlar (operatsiyalar) xarid qilinayotgan va realizatsiya qilinayotgan tovarlar (xizmatlar)

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

nomenklaturasiga nomuvofiq bo‘lgan holatlar mustasno). Bunda, nomuvofiq holatlar 30 kun muddatda o‘z tasdig‘ini topmaganda guvohnomaning amal qilishi faollashtiriladi.

Tadbirkorlarning qonunchilik talablariga to‘liq amal qilgan holda faoliyat yuritishini rag‘batlantirish uchun 2024-yil 1-yanvardan boshlab quyidagilarni nazarda tutuvchi tadbirkorlik subyektlarining ishonchlilik reytingini joriy qilish belgilab qo’yildi:

a) tadbirkorlik subyektlarining ishonchlilik reytingini shakllantirish bo‘yicha ochiq-oshkora mezonlarni belgilash;

b) yuqori reyting ko‘rsatkichlariga ega tadbirkorlik subyektlari uchun quyidagi qo‘llab-quvvatlash choralarini belgilash:

barcha turdagi soliq tekshiruvlaridan ozod qilish (bundan jinoiy ishlar doirasidagi tekshiruvlar mustasno);

qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi o‘rnini qoplash (qaytarish), shuningdek, barcha soliq turlari bo‘yicha mavjud ortiqcha to‘lov summasini bir kun muddatda tezlashtirilgan tartibda qaytarish.

c) Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish, shu jumladan biznesning “soyadan” chiqishini rag‘batlantirish, teng raqobat muhitini ta’minlash, soliq va bojxona ma’muriyatchiligini soddalashtirish, ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar belgilash.

Shuningdek, rivojlangan davlatlar tajribasini o’rganish, MDH davlatlari tajribalari bilan tanishib tahlil qilish soliq tizimini takomillashtirish va tizim faoliyati samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb qiladi.

Xorijiy davlatlar, xususan Yevropa Ittifoqi tajribasini milliy amaliyotga moslashtirish, korxonalarda bilvosita soliqlarning ma'muriy yukini kamaytiradi. Import va ishlab chiqarish zanjirida aylanma mablag‘larning erkinlashishi korxonalarning raqobatbardoshligini oshirishga va "yashirin iqtisodiyot" ko‘lamini qisqartirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 4-sentyabrdagi "Tadbirkorlik subyektlari tomonidan soliq majburiyatlarini bajarishda qo‘shimcha qulayliklar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-292-sonli Qarori.
2. Vahobov, A. V., & Jo‘rayev, A. S. (2021). Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. Toshkent: Sharq.
3. Ganiyev, Sh. A. (2023). O‘zbekistonda bilvosita soliqlarni ma’murlashtirishni takomillashtirish yo‘llari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali, № 4, 12-22-b.
4. Toshmatov, Sh. A. (2022). Korxonalarni soliqqa tortish va investitsion faollik muammolari. Ilmiy monografiya. Toshkent: Fan.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.